

JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI "TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH"NI AMALGA OSHIRISH MEXANIZIMI

*Uchqun O'roqov, Umrzoq Jamoliddinovich Ro'ziyev,
Jahongir Xurshid o'g'li Avazbekov
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya: Mamlakatimizda byudjet tizimi ochiqligini va shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri tegishli hudud mahalliy byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar yo'nalishlarini belgilashda fuqarolar faol ishtirokining ta'minlanishidir.

Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi «Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-son Qarori muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Byudjet, mahalliy xarajatlar, ochiqligini, shaffofligi, Portal orqali, jamoatchilik, fikri, moliyalashtirish.

JIZZAKH PAKHTAKOR DISTRICT IMPKEMENTATION MECHANISM OF "INITIATIVE BUDGETING"

*Uchkun O'rokov, Umrzoq Jamoliddinovich Ro'ziyev,
Jahongir Xurshid o'g'li Avazbekov
Tashkent State University of Economics*

Absrtarct: One of the challenges is the openness of our budget system and the way we help fund construction.

Increasing the openness and security of budget information August, the Decision PQ-391 of the Republic of Uzbekistan dated 22.2018 "On measures to ensure the openness of budget information and public participation in the budget" is of great importance in the control of budget funds and spending.

Keywords: Budget, Open Access, Openness, Openness, Via Portal, Source, Opinion, Funding.

KIRISH

Mamlakatimizda byudjet tizimi ochiqligini va shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri tegishli hudud

mahalliy byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar yo'nalishlarini belgilashda fuqarolar faol ishtirokining ta'minlanishidir.

Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi «Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-son Qarori muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi Qarorda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tuman (shahar)lar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan mahalliy byudjetlar parametrlari va ijrosi haqidagi hisobotlarning ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi jarayonining ommaviy axborot vositalarida har tomonlama yoritish hamda tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlari qo'shimcha manbalaridan kamida 10 foizining Portal orqali jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish majburiyati yuklandi.

O'zbekistonda tashabbusli byudjet jarayonini amalga oshirish davrini ikki bosning ilk bosqichga ajratish mumkin:

1. Ilk bosqich 2019-2020 yillarda amal qilgan,
2. Tashabbusli byudjet jarayonining ikkinchi (takomillashtirilgan) bosqichi 2021-yildan keyingi davrni qamrab oladi.

1-jadval

Jizzax viloyati Paxtakor tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori

(ming so'mda)

| T/r | Ko'rsatkich nomi | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|------|---|--------------------|-----------|-----------|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 0.0 | 1209000.0 | 2123514 |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar | 1 700 000,0 | 26126074 | 41899231 |
| 3. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan | 1 297 000,0 | 17900000 | 41680000 |
| 3.1. | <i>Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'</i> | 1 017 000,0 | 8662795 | 29543973 |
| 3.2. | <i>Hisobvaraqlardagi qoldiq</i> | 0.0 | 8931218 | 11524053 |
| 4. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' | 403 000,0 | 6603568.6 | 2712939,6 |

1-jadvalimizga nazar solsak, Jizzax viloyati Paxtakor tumani 2021-yil boshi qoldig'i mavjud bo'lmagan, lekin 2022-2023-yillarda ko'rsatkichlar tashkil etgan. Ya'ni 2023-yil 2022-yilga nisbatan 2 barovarga o'sgan (2 123 514 ming so'm) Jizzax shahri tashabbusli byudjetlashtirish uchun ajratilgan mablag'lar yillar kesimida qarasaq, "Fuqarolar tashabbusli jamgarmasi"ga o'tkazilgan mablag'lar yildan yilga oshib borgan bunda 2021-yili 1 700 000,0 so'm bo'lsa bu ko'rsatkich 2022-yilda 15 barovar va 2023-yilda esa qariyb 25 baravarga oshgan bu ko'rsatkich shuni anglatadiki, har yili fuqarolar tomonidan loyihalar soni oshib bormoqda. Ushbu "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" ko'rsatkichning 3-yillik o'rtacha farqi 20 191 500 ming so'mni tashkil etgan. Shu jumladan, Bajarilgan ishlar uchun hisob varaqlardan moliyalashtirilgan mablag'i 2022-yilda 8662795 ming so'mga va 2023-yilda esa 29543973 ming so'mga oshgan. Hisobvaraqlardagi qoldiq 2022-yilda ming so'mda 8 931 218, 2023-yilda bu ko'rsatkich 11524053 ming so'mga oshgan. "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'i ushbu berilgan yillar davomida 41% ga oshgan.

2-jadval**Jizzax viloyati Paxtakor tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | | | Sarflangan mablag' (ming so'mda) | | |
|-------------|---|-----------------------------------|----------|----------|----------------------------------|----------|----------|
| | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
| Jami | | | | | | | |
| 1. | Hududiy ichki yo'llar | | | | | | |
| 2. | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash | 2 | 15 | 28 | 1 017 000,0 | 11467258 | 28134516 |
| 3. | Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | | | | | | |
| 4. | Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | | 5 | 4 | | 5163751 | 3927502 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 2 | | 2 | 280 000,0 | | 1800000 |

| | | | | | | | |
|----|---|--|---|---|------------------|----------|----------|
| 6. | Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash | | | | | | |
| 7. | Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari | | | | | | |
| 8. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish) | | | 2 | | | 2640000 |
| 9. | Boshqa tadbirlar | | 1 | 2 | | 38000 | 76000 |
| 10 | Jami | | | | 1297000,0 | 16669009 | 36578018 |

Ko'rib turibmizki 2021- yili faqat IV chorak mavjud bo'lganligi sababli boshqa yillarga nisbatan kam loyihalar kiritilgan, masalan umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash loyihasi uchun 2 ta taklif kiritilgan va ularni moliyalashtirish uchun 1 017 000,0 ming so'm mablag' ajratilgan. Ushbu ko'rsatkich 2022- yilda 2021-yilga nisbatan o'rtacha 10 baravarga o'sgan va 15 ta takliflar soni kiritilgan. 2022-yilda Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash 5163751 ming so'm bo'lib, 2023-yilda esa bu natija 3927502 ming so'mga o'zgaradi. Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash 2021- yilda moliyalashtirish uchun 2 ta taklif kiritildi va 280 000,0 ming so'm bo'lsa 2023-yilda bu ham 2 ta taklif bilan shu 1800000 ming so'mga o'zgaradi. Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish) taklifi esa faqat 2023-yilda 2 ta taklif bilan 2640000 ming so'm pul sarflangan.

3-jadval

Jizzax viloyati Paxtakor tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari

| Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|--|--------------------------|-----------------|-----------|----------|
| Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar | | | 16863440 | 20431720 |
| Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari | | | | |
| Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar | | 867000,0 | 5270800 | 2895648 |
| Shu jumladan | Erkin qoldiq mablag'lari | | 1 936 000 | 1631348 |

| | | | | |
|--------------------------------------|--|-----------------|----------|----------|
| | Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi | 867000,0 | 170 000 | 1264300 |
| | Iqtisod qilingan mablag'lar | | 108834 | 416663 |
| Jami ajratiladigan mablag'lar | | 867000,0 | 22134240 | 23327368 |

3-jadvalda ko'rinib turibdiki bunda Jizzax viloyati Paxtakor tumani, Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2021- yilda I choragida 65 000 dan III choragda 200 000 gacha ko'tarilgan. 2022- yilda esa ushbu ko'rsatkich I chorakda 3 706 000 dan III choragiga kelib mablag' 78 000 ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar I va II chorakda o'zgarmagan va III, IV choraklarda mablag' ajratilmagan. 2023- yilga kelib Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lari I, II, III choraklarda o'zgargan IV chorakda esa mavjud emas. Choraklar davomida o'rtacha 27% ga kamayib borgan. 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2021-yil I choragida 1980948 ming so'm bo'lsa, 2023-yil III choragida 299100 ming so'mga o'zgargan.

4-jadval

Jizzax viloyati Paxtakor tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi

| T/r | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Jami to'plagan ovozlar soni | Shu jumladan | | | Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori | Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar | Qoldiq mablag'lar |
|-------------------|--|-----------------------------|----------------|----------------|--------------------|---|--|-------------------|
| | | | onlayn ovozlar | oflayn ovozlar | SMS orqali ovozlar | | | |
| 2021-yilda | | | | | | | | |
| | Paxtakor tuman 2 maktab qarashli bollalar futbol | 1168 | 251 | 0 | 917 | 350 000,0 | 350000 | 0 |

| | | | | | | | | |
|--|-------|-----|---|-------|------------------|---------------|--------------|--|
| o'yingaxi tamir talab darajasida | | | | | | | | |
| Paxtakor tumani Axborot kutubxona markazining moddiy texnika bazasini mustahkamlash | 795 | 786 | 0 | 9 | 200 000,0 | 158590 | 41410 | |
| Paxtakor tumani xalq ta'lim bo'limiga qarashli 1 umumiy o'rta ta'lim maktabining eshik va derazalarini almashtirish | 325 | 3 | 0 | 323 | 667 000,0 | 667000 | 0 | |
| Paxtakor tuman Madaniyat bo'limiga ovozni kuchaytirgich asbob uskunalarini olish | 164 | 106 | 0 | 58 | 80 000,0 | 57893 | 22107 | |
| 2022-yilda | | | | | | | | |
| Paxtakor tuman "Toshkent" MFYda joylashgan Tibbiyot birlashmasini joriy ta'mirlash | 20013 | 252 | 0 | 19761 | 3 000 000 | 1000902 | 950550 | |
| Paxtakor tuman "Dilorom" | 17040 | 165 | 0 | 16875 | 1 200 000 | 504319 | 274792 | |

| | | | | | | | |
|--|-------|-----|---|-------|-----------|---------|--------|
| MFYda joylashgan 9-maktabda suniy qoplmalı maydon qurish | | | | | | | |
| Paxtakor tuman "Do'stlik" MFYda joylashgan 2-maktab sportzal binosini ta'mirlash | 13308 | 399 | 0 | 12909 | 2 400 000 | 1007050 | 549950 |
| Paxtakor tuman "Paxtakor" MFYda joylashgan 12-maktabni joriy ta'mirlash | 13185 | 24 | 0 | 13161 | 2 100 000 | 884785 | 478165 |
| Paxtakor tuman "Mingchinor" MFYda joylashgan 17-maktabni joriy ta'mirlash | 11208 | 93 | 0 | 11115 | 2 400 000 | 1008350 | 549650 |
| Paxtakor tuman tibbiyot birlashmasining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish yani tibbiyotda kulaniladigan zamonaviy asbob uskunalar xarid kilish. | 6602 | 0 | 0 | 6602 | 2 400 000 | 1042299 | 157701 |
| Jizzax viloyati Paxtakor tumani xalk tablimi bulimi | 5714 | 0 | 0 | 5714 | 2 400 000 | 1115500 | |

| | | | | | | | | |
|--|-------|-----|---|-------|-----------|---------|--------|--|
| tasarrufidagi 4-umumiy urta tablim maktabini joriy tamirlash | | | | | | | | |
| Paxtakor tuman toshkent MFYda joylashgan 31-sonli IDUMni joriy tamirlash | 2258 | 0 | 0 | 2258 | 1 200 000 | 1194697 | 5303 | |
| Buyuk ipax yuli KFY Yangilanish kuchasiga okova suv ariklari yotkizish, Mukumiy kuchasidagi 193,194,195,196, 197,198 va 199 uylar, Zomin kuchasidagi 75,76,77,78,79,80, 81,82 va 83 uylarning 2 kavatga kutarilish zinapoyalarini ta'mirlash. Bir necha yildan buyon Alfargoniy, Afrosiyob. Bogdon, Mexnatobod, Fidokorlar,Zomin kuchalariga okova suv | 2171 | 0 | 0 | 2171 | 800 000 | 38000 | 762000 | |
| 2023-yilda | | | | | | | | |
| Paxtakor tuman "Toshkent" MFYda joylashgan | 13342 | 168 | 0 | 13174 | 2000000 | 921452 | 0 | |

| | | | | | | | | |
|---|-------|-----|---|-------|---------|---------|--------|--|
| Tibbiyot birlashmasini joriy ta'mirlash | | | | | | | | |
| Paxtakor tuman "Dilorom" MFYda joylashgan 9-maktabda suniy qoplmalı maydon qurish | 11360 | 110 | 0 | 11250 | 800000 | 379111 | 0 | |
| Paxtakor tuman "Do'stlik" MFYda joylashgan 2-maktab sportzal binosini ta'mirlash | 8872 | 266 | 0 | 8606 | 1600000 | 757000 | 0 | |
| Paxtakor tuman "Paxtakor" MFYda joylashgan 12-maktabni joriy ta'mirlash | 8790 | 16 | 0 | 8774 | 1400000 | 662950 | 0 | |
| Paxtakor tuman "Mingchinor" MFYda joylashgan 17-maktabni joriy ta'mirlash | 7472 | 62 | 0 | 7410 | 1600000 | 758000 | 0 | |
| Paxtakor tuman tibbiyot birlashmasining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish yani tibbiyotda kullaniladigan zamonaviy asbob | 6602 | 0 | 0 | 6602 | 2400000 | 1042299 | 157701 | |

| uskunalar xarid kilish. | | | | | | | |
|---|------|---|---|------|---------|---------|--------|
| Jizzax viloyati Paxtakor tumani xalk tablimi bulimi tasarrufidagi 4-umumiy urta tablim maktabini joriy tamirlash | 5714 | 0 | 0 | 5714 | 2400000 | 1115500 | |
| Paxtakor tuman toshkent MFYda joylashgan 31-sonli IDUMni joriy tamirlash | 4516 | 0 | 0 | 4516 | 2400000 | 1194697 | 5303 |
| Buyuk ipax yuli KFY Yangilanish kuchasiga okova suv ariqlari yotqizish, Mukumiy kuchasidagi 193,194,195,196, 197,198 va 199 uylar, Zomin kuchasidagi 75,76,77,78,79,80, 81,82 va 83 uylarning 2 kavatga kutarilish zinapoyalarini ta'mirlash. Bir necha yildan buyon Alfargoniy, Afrosiyob. Bogdon, Mexnatobod, Fidokorlar, Zomin | 4342 | 0 | 0 | 4342 | 1600000 | 38000 | 762000 |

| | | | | | | | | |
|----|---|-------|-------|---|---|---------|---------|-------|
| | kuchalariga okova suv | | | | | | | |
| 0. | Paxtakor tumani 9-sonli umumta'lim maktabini zamonaviy quyosh panellari bilan jihozlash, issiqlik tizimini yaxshilash, sinf xonalarini ta'mirlash va jihozlash | 10034 | 10034 | 0 | 0 | 2000000 | 989821 | 10179 |
| 1. | Buyuk ipak yo'li MFY xududidagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash, moddiy texnika bazasini rivontirish va muqobil energiya manbalarini o'rnatish | 9416 | 9416 | 0 | 0 | 2000000 | 980151 | 19849 |
| 2. | Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumi o'quv xonalarini, moddiy- texnik bazasini rivojlantirish | 9374 | 9374 | 0 | 0 | 1800000 | 896541 | 3459 |
| 3. | Paxtakor MFY xududidagi 12- umumiy o'rta ta' | 9256 | 9256 | 0 | 0 | 2400000 | 1145043 | 54957 |

| | | | | | | | | |
|----|--|------|------|---|---|---------|---------|-------|
| | lim maktabini joriy tamirlash, muqobil energiya manbalarini o'ratish | | | | | | | |
| 4. | Bog'ishamol MFY xududidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash, muqobil energiya manbalarini o'rnatish | 8092 | 8092 | 0 | 0 | 2400000 | 1150363 | 49637 |
| 5. | Bog'ishamol MFY xududidagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash, muqobil energiya manbalarini o'rnatish | 8032 | 8032 | 0 | 0 | 2400000 | 1147381 | 52619 |
| 6. | Paxtakor MFY xududidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash, muqobil energiya manbalarini o'rnatish | 6484 | 6484 | 0 | 0 | 2400000 | 1183122 | 16878 |
| 7. | Paxtakor tumani Samarqand MFY da joylashgan 4-umumtalim maktabini joriy ta'mirlash | 6042 | 6042 | 0 | 0 | 2400000 | 1174635 | 25365 |
| 8. | Chamanzor MFY xududidagi 7-umumiy o'rta | 4388 | 4388 | 0 | 0 | 2400000 | 1181986 | 18014 |

| | | | | | | | | |
|-----|--|------|------|---|---|---------|---------|-------|
| | ta'lim maktabining xududini o'rash, oshona, faollar zali, sport zalini joriy ta'mirlash, muqobil energiya manbalarini o'rnatish | | | | | | | |
| 9. | Yangobod ko'chasi, Fayzobod ko'chasi, Binokor ko'chasi, Jizzax ko'chasi, Navoy ko'chasi, O'zbekiston ko'chasi jami 2500 metr ko'chalarni asfalt qilish | 4386 | 4386 | 0 | 0 | 2640000 | 1230725 | 89275 |
| 10. | Navoiy ko'chasi, O'zbekiston ko'chasi, A.Ikromov ko'chasi, F.Xojaev ko'chasi, Gulbaxor ko'chasi, N.Qarshiev ko'chasi jami 6000 metr ariq yotqizish | 4374 | 4374 | 0 | 0 | 2640000 | 1253613 | 66387 |

4-jadval orqali Jizzax viloyati Paxtakor tuman tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi bilan tanishib chiqadigan bo'lsak 2021-yilda tumanda jami 4 ta loyiha tashabbusli budjetlashtirish tadbirida g'olib deb topilgan Paxtakor tuman 2 maktab qarashli bolalar futbol o'yingaxi tamir talab darajasida bo'lib unda eng yuqorisi 1168 ta ovoz bilan (shundan 251 tasi onlayn ovoz berish orqali 917 tasi sms orqali) g'olib bo'lgan. 2022 yilda 9 ta loyiha eng ko'p ovoz to'plab 2021 yilga qaraganda 2 marotaba ko'p loyiha moliyalashtirilgan. 2023 yilga kelib esa jami 2 bosqichdan 20 ta loyiha g'olib deb topilib 2022 yilga qaraganda 11 ta loyihaga

ko'p pul ajratilgan. Shulardan 2022 yilning 1-mavsumiga qadar onlayn, oflayn yo`q bo`lib, hamda sms orqali 19761 ovozlari berilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda 2021-yildan 2023-yilgacha Jizzax viloyati Paxtakor tumanida "Tashabbusli budjet" loyihasi muvaffaqiyatli yo`lga qo`yilgan bo`lib va bu borada tuman aholisi o`z faolligini ko`rsatib ushbu loyihaga befarq bo`lmagani natijalar davomida yaqqol ko`rinib turibdi. Tuman jamg`armasida barcha jabhalarda o`shish bor va loyiha amalga oshirish jarayonlari ko`plab muhokamalar hamda ovoz berish bosqichlari tuman aholisida tobora takomillashtirib borilmoqda. Moliyalashtirishning yangi manbaalari va miqdori sezilarli daraja ko`paygan. Aholi o`z ehtiyojlaridan kelib chiqib turli sohalardagi muammolarga e`tibor qaratmoqda va yutgan aholi (mahalla) shu tashabbus orqali obodonlashtirilib kelmoqda. Tumandagi umumiy ko`rsatkichlar ijobiy tomonlama o`shish natijasini ko`rsatib kelmoqda. Ko`rinib turibdiki "Tashabbusli byudjet" loyihasi yildan yilga tobora avj olib, rivojlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:"Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Хайдаров НХ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022

13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Masharipov I.B. MODERNIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. The Way of Science International scientific journal. 2020. 6 (76)